

№ S/4 (3) - 2023

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL**

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

Nº S/4 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аббасов Беҳзод Бахтиёрович</i>	
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ	10-21
<i>Бабаджанов Ҳасан Бахтиёрович</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ	22-27
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	28-36
<i>Rasulov Ma'murjon Foziljonovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS ОBYEKTALARINING O'RNI	37-42
<i>Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна</i>	
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ	43-51
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>	
FARG'ONA VODIysi QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN	52-58
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i>	
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ	59-65
<i>Turaev Sherzod Gulboy ugli</i>	
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH	66-71
<i>Сотиболдиев Гайратжон Отамирзаевич</i>	
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	72-78
<i>Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ	79-90
<i>Абдуллајсанова Нигорахон Турдалиевна</i>	
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН	91-95
<i>Дониёров Носиржон Абдухолик ўғли</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН	96-102

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқурова</i>	
ИСЛОМИЙ СУФУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i>	
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i>	
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O’RNI	119-125
<i>Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i>	
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i>	
O’ZBEKİSTONDA RAQAMLI IQTISODİYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONİYATLARI	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o’g’li</i>	
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ	147-155
<i>Qurbanov Ma’murjon G’ayrat o’g’li</i>	
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O’ZBEKİSTON TURİZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i>	
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ	173-188
<i>Гойиназаров Санжар Баходирович</i>	
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҶАМЛЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллайевич</i>	
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196-203
<i>Курбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Ҳакимов Дамир</i>	
ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	204-216
<i>Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o’g’li</i>	
YASHIL IQTISODİYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARINI YO’NALTIRISH ZARURIYATI	217-222

Исломов Алишер Бахтиёр ўғли
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШ 223-229

Agzamova Nargiza Gapurovna
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN 230-237

Муродова Дилноза Чориевна
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 238-245

Khodjaeva Shodiyabonu Abitjanovna
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING
FUNKSIYALARI 246-250

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНӢЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ
ҮРНИ 251-259

Ibroximov Sarvar Mo'ydinjon o'g'li
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 260-265

Yuldashev Ibroxim To'ychiyevich
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING
MUSHTARAKLIGI 266-271

Khamdamova Sitora Safarovna
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA
XOSLIGI 272-277

Абдуллаев Джасур Абдивайт ўғли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО
ЧЕЛОВЕКА 278-283

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK
BIRLIKlar BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR 284-292

Qurbanova Muharram Jurabekovna
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI 293-297

Сафарова Замира Рустамовна
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК
ТАСНИФИ 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i>	THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS'	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i>	ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i>	TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI	319-325

<i>Асадова Дилбархон</i>	ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ	326-342
--------------------------	---	---------

<i>Khusanov Eldor Davlat o'g'li</i>	BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	343-348
-------------------------------------	---	---------

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i>	ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	349-355
---------------------------------------	---	---------

<i>Шымбергенова Улзада</i>	ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	356-362
----------------------------	--	---------

<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i>	ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	363-372
--	---	---------

<i>Мирзаев Щухрат Шавкатович</i>	КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ	373-382
----------------------------------	---	---------

<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i>	"ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ"	383-392
--------------------------------------	--	---------

<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i>	ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	393-399
----------------------------------	---	---------

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i>	XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH	400-409
-----------------------	--	---------

<i>Музабарова Соодат Хайдаровна</i>	ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАҶНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ	410-415
-------------------------------------	---	---------

Xaydarova Iroda Nizomiddinovna

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI
NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

Шукрова Нафиса Алишеровна

ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН
ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ 422-427

Nigmanov Bori Botirovich

FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING
AHAMIYATI 428-433

Муродова Дурдона Раимжон қизи

БҮЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК
ТЕХНОЛОГИЯСИ 434-438

Axmedov Alisher Nosir o'g'li

ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI 439-447

Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI 448-452

Mansurbekova Feruza Gayratovna

BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 453-456

Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna

O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI 457-465

Atamuratova Munira

O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY
ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL
METODLAR TAVSIFI 466-471

Нурилло Эминов

ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА
БИР НАЗАР 472-476

08.00.00-Иқтисодиёт фанлари

Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna
TMI katta o'qituvchisi

Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o'g'li
TMI talabasi

YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSIYALARINI YO'NALТИРИШ ZARURIYATI

Annotasiya. Maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning mazmuni, barqaror rivojlanishda uning ahamiyati, shuningdek uning afzalliklari tadqiq qilingan. Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy natijalar tadqiq qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiya, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy samaradorlik, tabiiy resurslar, ekologiya, energiya resurslari, foyda, ehtiyoj.

Асамходжаева Шоира Шукуруллаевна
старший преподаватель ТФИ

Махмудов Мухаммадқодир Музффар угли
студент ТФИ

СУЩНОСТЬ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ И НЕОБХОДИМОСТЬ НАПРАВЛЕНИЯ В НЕЕ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация. В статье рассматривается понятие и содержание зеленой экономики, ее значение в устойчивом развитии, а также ее преимущества. Изучены экономические и социальные результаты, связанные с направленностью инвестиций в зеленую экономику, и сделаны выводы.

Ключевые слова: зеленая экономика, инвестиции, экономический рост, экономическая эффективность, природные ресурсы, экология, энергоресурсы, прибыль, потребность.

Asamxodjaeva Shoira
senior teacher Tashkent Institute of Finance

Maxmudov Muxammadqodir
student Tashkent Institute of Finance

THE NATURE OF THE GREEN ECONOMY AND THE NEED TO DIRECT INVESTMENTS TO IT

Abstract. The article examines the concept of green economy, its content, its importance in sustainable development, as well as its advantages. The economic and social results related to the orientation of investments in the green economy have been studied and conclusions have been drawn up.

Key words: green economy, investment, economic growth, economic efficiency, natural resources, ecology, energy resources, profit, need.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N26>

Kirish. O'zbekiston barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan bormoqda. Tuproq yemirlishi, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi va havoning ifloslanishi asosiy ekologik muammolar bo'lib, aholi farovonligini oshishiga qarshi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muammolarni hal etish uchun Yashil iqtisodiyotga o'tish, ularga investitsiyalarni jalg qilish, aholining turmush tarzini oshirish, iqtisodiy unumdorlikka erishish maqsadida 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturida bir qator vazifalar belgilangan: qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini oshirish va boshqalar [1].

Shu o'rinda "yashil iqtisodiyot"ning mohiyatiga to'xtalib o'tsak. "Yashil iqtisodiyot" atamasi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'lchovlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy tushunchadir. Bunda tabiiy resurslarimiz sifati va miqdoriga doimiy bosimni kamaytirish yordamida iqtisodiy o'sish zarurligi nazarda tutiladi. Hozirgi kunda dunyo texnologiya, iqlim, siyosat va iqtisod rivojlanishi bilan o'zgarib borar ekan, tabiat, aholi hamda biznes manfaati uchun ekologik va ijtimoiy maqsadlarni o'zaro muvozanatlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyot modeli ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirish orqali inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash muvaffaqiyatini birinchi o'ringa qo'yadi. Xo'sh yashil iqtisodiyotga qanday ta'rif berish mumkin? Yashil iqtisodiyotning ta'rifi ijtimoiy hamda ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan infratuzilmani yaratishda davlat va xususiy investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanish amaliyotidir. Yashil iqtisodiyotning ahamiyati shundaki, u iqtisodiyotlarni yanada barqaror va kam uglerodli bo'lishga undaydi, shu bilan birga tabiiy boyliklar, resurslar va atrof-muhit insoniyatning doimiy farovonligi uchun xizmat qilishining davomiyligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Iqtisodchi olim S.I.Kodanevaning fikriga ko'ra "Yashil iqtisodiyot" – resurslarni tejovchi va ekologik toza iqtisodiyot bo'lib, o'zining yuqori qo'shilgan qiymat mahsulotlari va intensiv ishlab chiqarish usullari bilan ajralib turadi. Tugab borayotgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali odamlarning hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan yagona dasturdir. U tubdan yangisini shakllantirishni, foya keltiradigan ishlab chiqarish va iste'mol shakllarini hamda atrof-muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatadigan aholi ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga oladi [5]. Xorijlik olim P. Soderholmning fikricha, yashil iqtisodiyot o'sish va rivojlanish uchun muqobil qarashdir; atrof-muhit va ijtimoiy farovonlikni oshirishga mos keladigan tarzda iqtisodiy rivojlanish va odamlar hayotini yaxshilashga yordam beradigan rivojlanish modelidir. Yashil iqtisodiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri barqaror texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni rag'batlantirishdir [7].

Amerikalik huquqshunos Van Jons o'z asarlarida yashil iqtisodiyotga investitsiyalar ekologik va iqtisodiy muammolarni yechishga yordam berishini ta'kidlaydi. Qayta tiklanadigan elektr energiyasiga hamda qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritish orqali yashil ish o'rinalarini yaratish, energiya samaradorligiga erishish, shuningdek, yanada adolatli va barqaror jamiyatni yaratish mumkin. Shuningdek, Jons Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun davlat siyosati va hukumat harakatlari muhimligini ham ta'kidlaydi. Hukumat yashil

iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik va yashil ish o'rni o'qitish dasturlarini o'z ichiga olgan bir qator vositalarni q'llashi kerak, deb hisoblaydi [2]. Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Vahobov va Sh.Xajibakiyevlarning bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida resurslar tanqisligi, ekologik muammolar va iqtisodiy xavflar kabi global muammolar o'rganilib, bu muammolarni faqat yashil iqtisodiyotga o'tish yo'li bilan hal qilish mumkinligi ta'kidlab o'tilgan [3].

Shuningdek, iqtisodchi P.Xashimovning fikricha "Yashil iqtisodiyot – inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga hamda atrof-muhitni buzmasdan iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizim bo'lib, ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yangi yo'nalish hisoblanadi" [8]. Yashil iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish global vazifalardan hisoblanganligi sababli ham bu borada hali ko'plab izlanishlar olib borish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yashil iqtisodiyot va unga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlarni to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahvil va natijalar. Yashil iqtisodiyot jamiyat va atrof-muhit uchun yaxshi istiqbolni ta'minlagan holda, bizning ichki va global iqtisodiy tuzilmalarimizga inklyuziv ekologik barqarorlik hamda global iqlim moslashuvini rag'batlantirish uchun juda muhimdir [4]. Yashil iqtisodiyot uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, rivojlanish bizning farovonligimiz va iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan resurslar, xizmatlar, atrof-muhit, iqlimni ta'minlashni davom ettirish uchun tabiiy ekotizimlardan samarali va mas'uliyatli foydalanish hamda saqlashga bog'liqligini tan oladi. Yashil iqtisodiyotda imkon qadar kamroq issiqxona gazlari chiqariladi, kam uglerod chiqaruvchi iqtisodiyotga erishiladi; tabiiy resurslardan samarali foydalaniladi va chiqindilar kamayadi yoki yo'q qilinadi; iqtisodiyotda energiya samaradorligiga erishiladi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini to'la iste'mol qilishga o'tiladi; atrof-muhit ifloslanishini oldi olinadi; u ijtimoiy inklyuziv; u mavjud va kutilayotgan oqibatlarga moslashish bilan birga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashadi; yashil iqtisodiy o'sishga asoslangan [6].



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlari*

**Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasidagi muallif ishlanmasi.*

Ushbu maqsadlarga erishish uchun yashil iqtisodiyot qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklashga tayanadi. Aniq harakatlar chiqindilarni minimallashtirish, atrof-muhit ifloslanishi va global isishni kamaytirish va resurslarning tugashining oldini olishga qaratilgan. Xom ashyni qazib olish va qayta ishlashdan tortib, mahsulotni utilizatsiya qilishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ortiqcha ishlab chiqarishga olib keladi, jamoaviy aloqalarni buzadi va tabiatni yo'q qiladi, insoniyatga tahdid soladi hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish modelidan "yashil iqtisodiyot"ga o'tish ushbu muhim muammolarni hal qilish orqali barqaror, adolatli va inklyuziv iqtisodiy tizimni yaratish zaruratidan kelib chiqmoqda. Yashil iqtisodiyotda davlat va xususiy investitsiyalarning ayrim yo'nalishlari quyidagi rasmda keltirilgan.

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarning yo'nalishlari

samaradorlikni oshirish hisobiga iste'molni kamaytirish

tabiiy resurslardan samarali foydalanish

energiya sarfini kamaytirish

chiqindilar miqdorini kamaytirish

biologik xilma-xillikni saqlash

2-rasm. Yashil iqtisodiyotda davlat va xususiy investitsiyalarning ayrim yo'nalishlari*

**Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasidagi muallif ishlanmasi.*

Yashil iqtisodiyotning mazmun-mohiyatini tushunish orqali uni qabul qilish kompaniyalarga ham, jamiyatga ham qanday foya keltirishini yetarlicha anglash mumkin. Shunday bo'lsada, biz "yashil iqtisodiyot"ning eng asosiy 4 ta afzalliklarini umumlashtirishni ma'qul ko'rdik:

- xom ashydan yanada mas'uliyatli foydalanish va samarali energiya sarfi samaradorligini oshirish orqali xarajatlarni qisqartirish;
- hayotiylik sikli tugagan mahsulotlarni qayta ishlash va qayta ishlatish orqali chiqindilarni kamaytirish;
- yangi ish o'rinalarini yaratish (masalan, loyiha menejerlari, maslahatchilar, montajchilar, koordinatorlar va boshqalar);
- atrof-muhit muammolarini hal qiladigan va sayyorani hurmat qiladigan sotuvlarni oshirish.

Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarning yo'naltirilishi bir nechta iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga sabab bo'ladi. Bular quyidagilar:

- yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritish, ayniqsa qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi va barqaror transport kabi sohalarda yangi ish o'rinalarini yaratishga olib kelishi mumkin. Bu mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va bandlikni ta'minlashga yordam beradi;

- yashil investitsiyalar yangi biznes imkoniyatlarini yaratish, samaradorlikni oshirish va energiya samaradorligini oshirish choralari orqali korxonalar va uy xo'jaliklari uchun xarajatlarni kamaytirishi tufayli iqtisodiy o'sishga ham hissa qo'shishi mumkin;

- resurslarni ekologik toza texnologiyalarga taqsimlash va barqaror amaliyotlarni joriy etish muhim ekologik afzalliklarga olib kelishi mumkin, jumladan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, havo va suvning tozaligini oshirish va tabiiy resurslarni saqlash. Ushbu ijobjalar odamlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatishga yordam beradi;

- yashil investitsiyalar havo ifloslanishini kamaytirish va toza suv hamda sog'lom oziq-ovqatdan foydalanishni yaxshilash kabi sog'liq uchun bevosita foyda keltirishi mumkin. Bu insonlar va jamiyat uchun salomatlik natijalarini yaxshilash hamda hayot sifatini oshirishga olib kelishi mumkin;

- yashil iqtisodiyotga investitsiyalar innovatsiyalarni rag'batlantirishi va korxonalarning o'zgaruvchan bozorda raqobatbardosh bo'lismiga yordam berishi mumkin. Barqaror amaliyot va texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalar o'zlarining chidamlilagini oshirishlari va rivojlanayotgan ekologik hamda ijtimoiy muammolarga moslashishlari mumkin.

Afsuski bugungi kunda aholining tabiatga bo'lgan xatti-harakatlari, investitsiyalarning manzilli yetib bormaganligi tufayli bir nechta muammolar yuzaga keldi. Bular quyidagilar:

- iqlim o'zgarishi natijasida, tog'lardagi muzliklar qisqarib bormoqda. Bu esa dengiz, daryo, ko'l singari suv havzalaridagi suvning sezilarli qisqarishiga olib kelmoqda. Irrigatsiya inshootlarining eskiligi, sanoat korxonalari asbob-uskunalarining ko'p hajmda suv iste'mol qilishi va kam yog'ingarchilik tufayli kishi boshiga to'g'ri keladigan suv hajmi yildan-yilga kamayib bormoqda;

- suvning noto'g'ri qo'llanilishi tufayli suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi juda past. Bu esa kelajakda asosiy muammolardan biriga aylanishi mumkin, shuning uchun, suvni tejashtga mo'ljallangan irrigatsion texnologiyalarga investitsiyalarni ahamiyatini oshirish zarur;

- mamlakatimizda yaratilayotgan energiyaning asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, issiqlik elektr stansiyalari yoqilg'i (tabiiy gaz va ko'mir) yonishi orqali olinadi. Bundan chiqadigan zararli tutunlar esa inson sog'ligiga va atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar yashil energiyaga o'tilmasa, elektromobilardan keng foydalanish ko'zlangan ekologik maqsadlar bajarilishiga olib kelmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali qo'shimcha boylik yaratish; ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirish orqali yaxshi hayot sifatini kafolatlash; farovonlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash orqali ish o'rinnarini yaratish va qashshoqlikni bartaraf etish mumkin. Yashil iqtisodiyot - bu jamiyatimiz va sayyoramiz uchun foydali bo'lgan barqaror dunyoni yaratuvchi tushunchadir. Yashil iqtisodiyot insonlar farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhitga xavflarni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiy faoliyatdir. Bu yalpi ichki mahsulotning o'sishini kafolatlaydigan va shu bilan birga tabiatni asrash va ximoya qilish, inson va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan barqaror rivojlanishni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish, pirovardida, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun zarur resurslarga ega tabiat va ekotizimlarni buzmasdan, adolatli va munosib yashash qobiliyatini anglatadi. Shu sababli bu

soha rivojlanishini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, turli moliyalashtirish manbalaridan, xususan investitsiyalardan unumli foydalanish zarur.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori.
2. Van Jonas. The Green Collar Economy: How One Solution Can Fix Our Two Biggest Problems. 2008
3. Vahobov A., Xajibakiyev Sh. Yashil iqtisodiyot. Darslik. T. 2020.
4. Guo J. and others. Exploring the role of green innovation and investment in energy for environmental quality: An empirical appraisal from provincial data of China. Journal of environmental management. Volume 292, 15 august 2021. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0301479721008410>
5. Kodaneva S.I. Transition from the «Brown Economy» Model to the «Green Economy» in Russia and Abroad. Russia and the contemporary world. 2020.
6. Lin Zhang and others. Globalization, Green Economy and Environmental Challenges: State of the Art Review for Practical Implications. <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fenvs.2022.870271/full#B38>
7. Patrik Söderholm. The green economy transition: the challenges of technological change for sustainability. Sustainable earth reviews. June, 2020. <https://sustainableearthreviews.biomedcentral.com/articles/10.1186/s42055-020-00029-y>
8. Xashimov P. Resurslarning cheklanganligi va yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyati. "Science and innovation" xalqaro ilmiy журнали. 2022 yil 3сон.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

Nº S/4 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).